

## **O‘ZBEKISTONDA MUSTAQILLIK ARAFASI VA UNING DASTLABKI YILLARIDA BOZOR IQTISODIYOTIGA O‘TISH SHART SHAROITLARI**

*Hamroev Shuhrat Sharofovich*

*Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti.*

*Annotatsiya: maqolada XX asrning 80-yillari oxiri va 90-yillari boshida O‘zbekiston mustaqilligi arafasi va uning dastlabki yillarida respublikada bozor iqtisodiyotiga o‘tish shart sharoitlari, iqtisodiy-ijtimoiy ahvol masalalari bayon qilingan. Unda iqtisodiyotda bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich shakllantirib va rivojlantirib borilishi, aholi turmush darajasining o‘zgarishi, iqtisodiy erkinlik, ishlab chiqarish korxonalarining ahvoli, qishloq xo‘jaligi xom ashyosi va mehnat resurslaridan to‘laroq foydalanish hisobiga iqtisodiy rivojlanish darajasi yoritilgan.*

*Kalit so‘zlar: bozor iqtisodiyoti, mustaqillik, aholi turmush tarzi, ziddiyat, inqiroz, ishloq xo‘jaligi, xom ashyo, tayyor maxsulot, tijorat, savdo, rivojlanish, narxlar.*

## **УСЛОВИЯ ПЕРЕХОДА К РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКЕ В УЗБЕКИСТАНЕ НАКАНУНЕ И ПЕРВЫЕ ГОДЫ ЕЁ НЕЗАВИСИМОСТИ**

*Хамроев Шухрат Шарофович*

*Институт переподготовки и повышения квалификации руководителей и специалистов дошкольных образовательных организаций.*

*Аннотация: в статье описаны предпосылки перехода к рыночной экономике в Республике Узбекистан в конце 1980-х – начале 1990-х годов, а также экономическая и социальная ситуация в республике. Описан уровень экономического развития, обусловленный постепенным формированием и развитием рыночных отношений в экономике, изменением уровня жизни населения, экономической свободой, состоянием производственных предприятий, полным использованием сельскохозяйственного сырья и рабочей силы.*

*Ключевые слова: рыночная экономика, независимость, образ жизни населения, конфликт, кризис, промышленность, сыре, готовый продукт, коммерция, торговля, развитие, цены.*

## **CONDITIONS OF TRANSITION TO A MARKET ECONOMY IN UZBEKISTAN ON THE EVE AND FIRST YEARS OF ITS INDEPENDENCE**

*Hamroev Shuhrat Sharofovich*

*Institute for retraining and improving the qualifications of directors and specialists of pre-school educational organizations.*

*Abstract: the article describes the prerequisites for the transition to a market economy in the Republic of Uzbekistan in the late 1980s - early 1990s, as well as the economic and social situation in the republic. The level of economic development is described, due to the gradual formation and development of market relations in the economy, changes in the standard of living of the population, economic freedom, the state of production enterprises, and the full use of agricultural raw materials and labor.*

*Key words: market economy, independence, lifestyle of the population, conflict, crisis, industry, raw materials, finished product, commerce, trade, development, prices.*

O‘zbekiston mustaqilligi arafasi va uning dastlabki yillarida bozor munosabatlariga o‘tayotgan bir sharoitda ijtimoiy-iqtisodiy ahvol o‘ta murakkab edi. Uzoq yillar davomida hukm surgan ma‘muriy-buyruqbozlik tizimining asoratli ta‘siri sharoitida muammolarni hal etishning yagona to‘g‘ri yo‘li – bu iqtisodiyotda bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich shakllantirib va rivojlantirib borish edi. Jumladan, quyidagilar murakkab vaziyatning o‘ziga xos xususiyatlari sifatida namoyon bo‘ldi: aholining turmush darajasi bo‘yicha O‘zbekiston sobiq SSSR tarkibida oxirgi o‘rinlardan birida turar edi; aholining 60% dan ko‘proq asosiy qismi yashaydigan qishloq joylarida industrial rivojlanishning ahamiyatli darajada orta qolishi sharoitida iqtisodiyotda yirik sanoat shaharlaridagi gigant korxonalar-monopolistlarning haddan tashqari konsentratsiyasi va ixtisoslashuvi hukm surardi; iqtisodiyotda narxni tashkil etish va resurslarni taqsimlash bilan bog‘liq kuchli nomutanosibliklar kuzatilar edi; mamlakat o‘z davlatchiligining asoslarini yaratish zarurati oldida turardi; og‘ir ekologik ahvol mavjud edi[1].

Avvalombor respublika mintaqalarining rivojlanish xususiyatlariga e‘tibor berildi. Bunda iqtisodiy erkinlik tufayli ishlab chiqarish korxonalari o‘zlarida mavjud bo‘lgan tabiiy boyliklar, qishloq xo‘jaligi xom ashyosi va mehnat resurslaridan to‘laroq foydalanish hisobiga iqtisodiy rivojlanish darajasini yanada

ko'tarish imkoniga ega bo'ldi[2]. O'sha paytda O'zbekistonda markazlashtirilgan va yagona bir markazdan boshqariluvchi iqtisodiyotdan – bozor iqtisodiyotiga o'tish zarurligi quyidagi bosqichlarni amalga oshirishni taqozo etdi:

1. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning huquqiy asoslarini yaratish, ya'ni uni ta'minlovchi yuridik qonunlar tizimini yaratish.
2. Bozor infrastrukturasi shakllantirish. Bunda bozor iqtisodiyotiga xos aloqalarni o'rnatishga ko'mak beruvchi, ya'ni bozorga xizmat ko'rsatuvchi sohalarni, tashkilot, korxonalar va muassasalarni yaratish.
3. Mulkchilik va xo'jalik yuritish usullarini xususiylashtirish.
4. Narxlarni erkinlashtirish, narx ustidan davlat nazoratini minimal darajaga keltirish kabilar[3].

Respublikadagi ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning negizida uzoq yillar davomida hukm surib kelgan ma'muriy-buyruqbozlik tizimining asoratli ta'siri yotishini, shunga ko'ra ularni hal etishning yagona to'g'ri yo'li – bu iqtisodiyotda bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich shakllantirib va rivojlantirib borish ekanini qat'iy belgilab berdi. Jumladan, ushbu jarayonning maqsadga muvofiq tarzda, samarali va eng muhimi, aholi turmush darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatmagan holda amalga oshishi uchun quyidagi tadbirlarga alohida e'tibor qaratildi:

- O'zbekiston sharoitida bozor mexanizmining mohiyati va mazmuniga har tomonlama real baho berish, uning joriy etilishida vujudga kelishi mumkin bo'lgan murakkabliklar va noxush oqibatlarni ko'zda tutish, o'tish davri keskinliklarini yumshatishga yordam beradigan zarur mexanizmlarni shakllantirish;

- nonning chakana narxi, boshqa narxlardan ayri holda bir tomonlama oshirilishi g'alla bilan paxta, ulardan olinadigan mahsulotlar narxlarining ekvivalentligiga erishish yo'lidagi sa'y-harakatlarni, ko'zda tutilayotgan yoqilg'i, metall va texnika narxlarining oshirilishi, paxtaga haq to'lashni ko'paytirish tartiblarini takomillashtirish;

- respublika uchun katta ahamiyat kasb etuvchi boshlang'ich sharoitlarni hisobga olish va barobarlashtirish masalasiga chuqur e'tibor qaratish lozim edi[4].

Ushbu davrda inqiroz sharoitida bozor islohotlarini tadbir etish, davlat mulki va tovarlarini bosqichma-bosqich xususiylashtirish, ularni tadbirkorlarga bo'lib berish hamda sotish ishlari amlaga oshirildi. Jumladan, birgina 1990 yilda qishloq xo'jaligi va chorvachilik tasarrufidagi mol mulklar, xususan 61,5 ming qoramol, 384 ming bosh qo'y, 34 ming echki va cho'chqa, 7,8 mln tovuq etishtiruvchi sub'ektlar xususiylashtirish sharti bilan shaxsiy xo'jaliklar (tadbirkorlar) ga sotilgan[5]. Agrar sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida 1989-1990 yillarda 1,5 milliondan ko'proq oilaga qo'shimcha er ajratilib, 700 ming oilaga yangi tomorqa erlari berilgan[6]. To'g'ri, hali o'sha pallada sobiq sovet tuzumi, davlat mulkining monopolistik xarakteri hamda markazlashgan rejali boshqaruv tizimi hukmronlik qilar, xususiylashtirish va bozor iqtisodiyoti haqida so'z yuritish murakkab edi. Shunday sharoitda islohotlarning tizimli amalga oshirilishi uchun avvalo uning huquqiy mexanizmi bo'lishi zarur edi. Shu boisdan, "O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida" gi Qonunning qabul qilinishi davlat mulkchiligini bosqichma-bosqich tugatish va xususiylashtirishni manfaatlarini himoya qilishda muhim voqea bo'ldi. Mazkur Qonunning mantiqiy davomi sifatida 1991 yil 19 noyabrda qabul qilingan "Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida" gi Qonuni ham muhim ahamiyat kasb etdi[7].

Ushbu Qonunga muvofiq dastlab xizmat ko'rsatish, savdo, tijorat, umumiy ovqatlanish, transport, tayyorlov va qayta ishlovchi korxonalar xususiylashtirildi. Ba'zi iqtisodchilarning qayd etishlaricha ushbu davr kichik xususiylashtirish bosqichi (1992 yildan boshlanganligi qayd etiladi) nomini olgan bo'lsada, tarixiy nuqtai nazardan uning shakllanish davrini sal oldinroq, ya'ni yuqorida qayd etilganidek, 1991 yil 19 noyabrda ushbu sohaga talluqli maxsus Qonun qabul qilinishi bilan boshlangan, desak to'g'riroq bo'ladi. Chunki har qanday jarayonning shakllanishi va rivojlanishiga uning huquqiy asosi ta'sir ko'rsatishi shubhasiz. Shu boisdan qabul qilingan mazkur qonunga ko'ra xususiylashtirish birinchi navbatda savdoda, maishiy xizmat ko'rsatish va mahalliy sanoatda amalga oshirila boshlandi. Aholi uchun eng zarur mollarni talon orqali sotish yo'lga qo'yildi[8]. Uzoq yillik bir markazdan boshqariluvchi iqtisodiyotdan – bozor iqtisodiyotiga o'tish zarurligi quyidagi vazifalarni amalga oshirishni taqozo etdi:

1. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning huquqiy asoslarini yaratish, ya'ni uni ta'minlovchi yuridik qonunlar tizimini yaratish;

2. Bozor infrastrukturasi shakllantirish. Bunda bozor iqtisodiyotiga xos aloqalarni o'rnatishga ko'mak beruvchi, ya'ni bozorga xizmat ko'rsatuvchi sohalarni, tashkilot, korxonalar va muassasalarni yaratish;

3. Mulkchilik va xo'jalik yuritish usullarini xususiylashtirish;

4. Narxlarni erkinlashtirish, narx ustidan davlat nazoratini minimal darajaga keltirish kabilar

Vaholanki, respublikadagi ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning negizida uzoq yillar davomida hukm surib kelgan ma'muriy-buyruqbozlik tizimining asoratli ta'siri yotar, shunga ko'ra ularni hal etishning yagona to'g'ri yo'li – bu iqtisodiyotda bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich shakllantirib va rivojlantirib borish ekanini qat'iy belgilab berdi. Bunda eng avvalombor mulklarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishga e'tibor qaratildi.

1991 yil noyabr oyidan boshlangan xususiylashtirish jarayoning boshlang'ich bosqichida davlat korxonalari asosan hissadorlik jamiyatlari (HJ), ma'suliyati cheklangan jamiyat (MChJ) va xususiylashtirish korxonalarining boshqa tashkiliy-huquqiy shakllariga aylantirildi. Tashkil etilgan ko'pgina hissadorlik jamiyatlarining ustav jamg'armalarida davlat ulushi saqlab qolindi.

Ya'ni, xususiylashtirishning boshlang'ich, murakkab bir tarixiy davrida barcha sohalardagi chuqur inqirozli holat, shubhasiz tadbirkorlikning ilk shakllanish bosqichiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Masalan, oldingi davlat mulki va xususiylashtirish mulkchilik hamda mulk shakllari o'rtasida tengsizlik yuzaga keldi, ishlab chiqarish hajmi pasayib ketdi. Xo'jalikning eskirgan kolxoz-sovхоз tizimi qishloq xo'jaligi va chorvachilik sohasiga ayniqsa salbiy ta'sir ko'rsatdi. Masalan, 1990-1992 yillarda mamlakat xo'jaliklarida go'sht ishlab chiqarish yiliga o'rtacha 15–17% ga tez pasayib bordi[9]. Ishlab chiqarishning umumiy hajmida engil sanoatning ulushi keyingi 50 yil ichida eng past ko'rsatkich sifatida 54% dan 37% ga, oziq-ovqat sanoatining ulushi 30% dan 14% ga tushib qoldi, umumiy ishlab chiqarishda qishloq xo'jalik mashinasozligining ulushi atigi 5% ga o'sib, 11% ni tashkil etdi[10].

Respublikaning Birinchi Prezidenti Islom Karimov o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari 1992 yil 4 yanvardagi IX sessiyasida so'zlagan dasturiy nutqida hamda 1992 yil avgust oyida nashr etilgan «O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li» asarida O'zbekistonning taraqqiyot yo'lini har tomonlama puxta belgilab berdi. O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'li Islom Karimovning keyingi asarlari, ma'ruza va nutqlarida yangi ma'no – mazmun bilan to'ldirilib, aniqlashtirilib borildi. O'zbekistonda ijtimoiy yo'naltirilgan erkin bozor iqtisodiyotiga o'tish modeli Islom Karimov tomonidan ishlab chiqildi. Besh tamoyilni o'z ichiga olgan bu modelning mazmuni va mohiyati Prezidentning 1993 yilda nashr etilgan «O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li» nomli asarida asoslab berildi[11].

Muhimi, iqtisodiy mustaqil taraqqiyot yo'li xalq tomonidan ham, xalqaro maydonda ham taraqqiyotning «o'zbek modeli» deb qabul qilindi. O'zbek modeli ishlab chiqishda, birinchidan, xalqaro tajriba asos qilib olindi. Ikkinchidan, xo'jalik imkoniyatlari, shart-sharoitlari, eski tuzumdan meros bo'lib qolgan muammolar hisobga olindi. Albatta bu borada maxsus mutasaddi organlar ham tashkil etilgan bo'lib, 1992 yil 10 fevralda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish va xususiylashtirish qo'mitasi shunday tashkilotlardan biri edi.

Bunda asosiy e'tibor mulkni isloh qilish va mulkchilikning turli shakllariga o'tish masalalari muhim bo'lgan bir paytda, respublikada tobora xususiylashtirish sektor salohiyatini ko'tarish muhim edi. Ya'ni, barcha xo'jalik mulklarini xususiylashtirish, ya'ni davlat mulki monopoliyasini cheklagan holda xususiylashtirishga aylantirish sharoitida ishsizlar soni ko'payotganligi, ijtimoiy mehnat unumdorligi va aholining daromadlari kamayib, pirovard natijada xalq farovonligi pasayib ketayotgan edi.

Ammo qisqa muddatda xususiylashtirish va kichik biznes uchun keng yo'l ochilishi, mavjud inqirozli holatga qaramasdan o'sha paytda etishtirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 26%, shu jumladan, go'shtning 49%, sutning 65%, junning 66% va sabzavotning 43% shaxsiy tomorqalar hissasiga to'g'ri kelgan. 1990 yilning o'zida yakka xo'jaliklarda etishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotining umumiy hajmi 300 million so'mdan oshganligi[12] ning o'ziyoq xususiylashtirish mulkning ahamiyatini yaqqol namoyon etadi.

Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish bozorning ko'p bo'g'inli infratuzilmasini yaratishni talab qildi. Chunki muayyan infratuzilmaga ega bo'lmasdan bozor mexanizmlari to'liq ishlay olmaydi. O'tish davrida bozor infratuzilmasi shakllantirish va kengaytirish borasida ko'plab amaliy tadbirlar amalga oshirildi. Islohlar davrida respublikamizda bozor munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi infratuzilmaning asosiy bo'g'inlari – turli muassasalar, tashkilotlar va korxonalar majmuasi vujudga keldi. Avvalambor, ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi – transport, aloqa, suv va energetika ta'minoti, yo'l va ombor xo'jaligi tuzilmalari yaratildi.

Tovar va xomashyo bozorida xizmat qiluvchi – tovarlar va xomashyo birjalari, biznes-inkubator, auditorlik va konsalting firmalari, ko'plab savdo uylari, auksionlar, tijoratchilik idoralari, reklama firmalari, savdo-sotiq va ularni nazorat qiluvchi davlat muassasalari tashkil etildi. Bu sohadagi dastlabki qadam – mahsulot etkazib berishga majburiy davlat buyurtmasining tugatilishi bo'ldi. Davlat buyurtmasi tugatilgach, tovar resurslarini markazlashgan tartibda taqsimlashga mutasaddi ta'minot tashkilotlari ham tugatildi. Ularning o'rniga tovarlar bozorini shakllantiruvchi birjalar tizimi tashkil etildi. O'zbekistonda 1991 yilning avgustidan «O'zbekiston» respublika universal agrosanoat birjasi, «O'zulgurjibirjasavdo» – O'zbekistonda ulgurji va birja savdosi bo'yicha Respublika davlat-aksiyadorlik uyushmasi (1994 yil mart), «Toshkent» Respublika tovar-xom ashyo birjasi (1994 yil 8 aprel) va boshqa birjalar faoliyat ko'rsatmoqdi. 1992 yil 12 avgustda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi «Birjalar va birja faoliyati to'g'risida» gi Qarorni qabul qildi[13].

Respublikamizda tadbirkorlar va aholini ro'y berishi mumkin bo'lgan turli zararlardan himoya qiluvchi sug'urta bozori vujudga keldi. Davlat ishtirokida bozor munosabatlariga xizmat qiluvchi «O'zbekinvest»



(1994 yil 13 aprel), «O'zagrosug'urta» (1997 yil 25 fevral), «Kafolat» (1997 yil 14 mart) kabi uchta yirik sug'urta kompaniyasi tashkil etildi. Ko'plab xususiy sug'urta kompaniyalari, shuningdek, xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikda ishlaydigan qo'shma sug'urta kompaniyalari ham vujudga keldi [14].

Xulosa qilib aytganda, respublika mustaqilligi arafasi va uning dastlabki yillarida bozor iqtisodiyotini rivojlantirishga islohotlarning muhim bo'g'ini sifatida qaraldi. Uning shakllantirilishi va rivojlantirilishi hamda yuzaga kelgan muammolardan chiqish quyidagi omillar bilan izohlandi:

- birinchidan O'zbekistonda bozor munosabatlariga davlat ahamiyati darajasida e'tibor qaratilishining muhim omili, nafaqat SSSR ning parchalanishi va bozor iqtisodiyotiga o'tilishi, balki unga rivojlangan jahon iqtisodiyotining tarkibiy qismi va jahon tarixiy tajribasida sinab ko'rilgan soha sifatida qaraldi. Chunki uning faoliyati endigina bozor iqtisodiyotiga o'tgan O'zbekistonda davlatning bosh islohotchilik yo'li, deb atalgan taraqqiyotning milliy modeli ma'lum ma'noda o'zini oqlay boshlaganligini, muhimi odamlar ongida mulkka egalik hissi shakllanishiga bevosita ta'sir qilganligini tasdiqladi;

- ikkinchidan, bu borada talay muammolar yuzaga kelgan bo'lsada, muhimi bozor iqtisodiyotida tadbirkorlik aholi bandligini ta'minlashga, munosib ish o'rinlari shakllanishiga, bandlikni ta'minlashga, ichki va tashqi bozorni maxsulotlar bilan ta'minlashga xizmat qilib, oilaviy tadbirkorlik, hunarmandchilik kabi sohalar tarkib topishi uchun keng imkoniyatlar yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekistonning eng yangi tarixi. (Fan doktori ilmiy darajasiga talabgorlar uchun o'quv qo'llanma). T. 2013.-B. 101.
2. Maroziqov A. Mustaqillikning dastlabki yillarida Farg'ona viloyatida tadbirkorlik: erishilgan natijalar va mavjud muammolar tahlili // Farg'ona vodiysi tarixining dolzarb muammolari. Respublika ilmiy anjumani materiallari – Namangan. 2020. – B. 619.
3. O'zbekistonning eng yangi tarixi. (Fan doktori ilmiy darajasiga talabgorlar uchun o'quv qo'llanma). T. 2013.-B. 104.
4. O'zbekistonning eng yangi tarixi. (Fan doktori ilmiy darajasiga talabgorlar uchun o'quv qo'llanma). T. 2013.-B. 105.
5. Назраткулов А. Социальные проблемы Узбекистана и пути их решения. (1971-1990 гг // Монография. – Тошкент.: Фан, 1991. – С. 143.
6. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. –Тошкент.: Ўзбекистон. 2011. –Б 12. Яна қаранг: Туляганова С. Мустақиллик йилларида Ўзбекистон қишлоқларида мулкчилик муносабатларининг ўзгариши ва эришилган ютуқлар тарихи / Рисола. – Тошкент., 2015. – Б. 7.
7. Ўзбекистон Республикасининг “Мулкни давлат тасарруфидан чиқариш ва хусусийлаштириш тўғрисида”ги Қонуни. // Ўзбекистон Республикасининг Қонунлар тўплами. – Тошкент, 1991.
8. Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгаши Раёсати ва Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Вазирлар Маҳкамасининг “Нархларнинг либераллаштирилиши муносабати билан республика ва унинг aholиси манфаатларини ҳимоя қилиш билан боғ'лиқ чора-тадбирлар тўғрисида” ги Қарори. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Вазирлар Маҳкамасининг Қарори. 12.11. 1991.№. 289.
9. Рахимов М.А., Рахматуллаев Ш., Турсунова Р., Назаров Р. Очерки новейшей истории Республики Узбекистан. – Ташкент: Адабиёт Учкунлари, 2016. – С. 109.
10. Социальное развитие и уровень жизни населения Узбекистана // Статистический сборник. – Ташкент. 1994.
11. Каримов И. А. «Ўзбекистон – бозор муносабатларига ўтишнинг ўзига хос йўли». Т. 1993.
12. Ғ'уломов С ва бошқалар. Кичик бизнес ва тadbirkorлик асослари. – Тошкент., 1996. – Б. 46.
13. Ўзбекистон Республикасининг Қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент, 1991. №1, №2, №4; Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси. – Тошкент, 1990. № 31-33. Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси. – Тошкент, 1994. №1--№5.
14. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Иқтисодий ислохотларни янада чуқурлаштириш, хусусий мулк манфаатларини ҳимоя қилиш ва тadbirkorликни ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги Фармони // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, Тошкент, 1995 й., № 7-8.; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1998 № 9 ҳамда «Хусусий тadbirkorликда ташаббус кўрсатиш ва уни рағ'батлантириш тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Президенти Фармони // (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. Тошкент, 1995. № 4.